



## BOLALARNING XORIJIY TIL O'RGANISH JARAYONIDAGI YOSH AHAMIYATI

Tojiboyeva Rayhona

Guliston davlat pedagogika instituti

[tojiboyevarayhona300@gmail.com](mailto:tojiboyevarayhona300@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16965011>

### ARTICLE INFO

Received: 11<sup>th</sup> August 2025

Accepted: 12<sup>th</sup> August 2025

Published: 27<sup>th</sup> August 2025

### KEYWORDS

*yosh chegarasi, ikkinchi til, xorijiy til, til o'rganish, muammoli vaziyatlar, tilshunoslik, nazariya, metod, tadqiqot, ta'lim jarayoni, logoped, pedagog.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqola qo'shimcha yoki ikkinchi tillarni o'rganish uchun bolalarda eng qulay yosh chegarasi, bu yoshda o'rganishning foyda va afzalliklarini, shuningdek, qanday ta'sir o'tkazilishini ko'rsatib o'tadi. Shuning bilan birga, til o'rganishdagi bosqichlar, til o'rganish bo'yicha muhokamalar, til o'rganishning bir qancha usul va metodlari ko'rib chiqiladi va bular haqida asosiy savollarga javob topiladi. Qo'shimcha ravishda shu sohadagi ayrim ziddiyatli vaziyatlar hamda muammoli holatlar ko'zdan kechirilib, ularning asosiy sabablari tadqiq etiladi.*

### Kirish

Bolalarda tilni o'zlashtirish juda muhim va ijtimoiy jarayon hisoblanib, kichik yoshligidan o'rganishi bolaning muloqot ko'nikmalari va miyaning rivojlanishi asosida sodir bo'ladi. "Shu o'rinda necha yoshdan xorijiy tilni o'rgatish ma'qul?", degan savol paydo bo'lishi mumkin. Bu kabi savollarga bir qancha olimlar o'zlarining tadqiqotlarida o'rganib chiqib, keng ommaga namoyish etishgan.

Quyida olimlar o'zlarining turlicha ilmiy yondashuvlarini keltirib o'tish mumkin. Bolalarda qo'shimcha til o'rganish va o'rgatishda juda ko'p tadqiqotlari bilan Noam Chomskiy alohida o'rin tutishini aytib o'tish joizdir. Uning tadqiqotlari til nazariyasiga asos solgan hisoblanadi. "Tilning tabiiyligi" deb nomlangan nazariyasini ilgari surgan va bu nazariya til o'rganishda biologik asoslarni ko'rsatib o'tgan. Shuningdek, "Umumiy grammatika" g'oyasi ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, bolalarning til o'rganish qobiliyatini tushuntiradi. Til o'rganish oldindan berilgan biologik tug'ma qobiliyat bo'lib, inson bunga "sozlab" qo'yilgan. U bolalar qanday qilib qiyin strukturalarni va grammatik qoidalarni tez va osonlik bilan o'rganishini tahlil qilgan.

Jeyn Piaget esa Noam Chomskiydan farqli o'laroq, bolalarning psixologik va kognitiv rivojlanishi ustida ish olib borgan. U bolalarning tillarni o'zlashtirish jarayonini o'zgacha tushuntirgan va alohida nazariya asosida tadqiqot o'tkazgan. Uning fikricha, bolalarda til o'rganish jarayoni kognitiv rivojlanish nazariyasiga asoslanadi va tilning o'zlashtirilishi aqliy salohiyat bilan bog'liq. Tilni anglab yetishda bosqichma-bosqich jarayonlarni keltirib o'tadi: sensor-motor, preoperatsion, aniq operatsiyalar va formal operatsiyalar bosqichlari.

Rus psixologi Lev Vigotskiy til o'rganishni ijtimoiy hodisa sifatida izohlaydi. Uning "Ijtimoiy-madaniy" nazariyasiga ko'ra, bolalar atrofdagi ijtimoiy muhitni o'rganadi, tahlil qiladi va bu til o'rganishga kuchli turtki bo'ladi. U "YaQZ" (yaqin rivojlanish zonasi) konsepsiyasini kiritib, bolalarning bilimlarini oshirish uchun muntazam ijtimoiy yordam zarurligini ta'kidlaydi.

Psixologik va biologik yondashuvlardan tashqari, til o'rganishda "konditsionlash" hodisasi ham muhim o'rin tutadi. Bu yondashuv B. F. Skinner tomonidan ilgari surilgan bo'lib, bolalarning tilni asta-sekin ovoz va so'zlarni takrorlash orqali o'zlashtirishini tushuntiradi.

Shuningdek, Stiven Pinker ham til o'zlashtirish jarayonida muhim tadqiqotlar olib borgan. Uning "Til instinktlari" asarida til insoniyat tarixidagi eng buyuk kashfiyot sifatida ta'riflanadi va uning biologik asoslari yoritiladi.

Mutaxassislarining fikricha, xorijiy tilni o'rganish uchun eng qulay va samarali yosh turlicha tasniflanadi:

0–6 yosh oralig'ida til juda samarali o'rganiladi. Til o'rganishni 3 yoshdan boshlash tavsiya etiladi, chunki bolalar turli usullarda o'rganishlari mumkin. Masalan, o'yin faoliyati, muloqot jarayoni hamda vizual materiallar bunda qo'l keladi. Har bir bola individual xarakter va xususiyatga ega bo'lganligi bois, xorijiy tilni o'rgatish uchun tanlangan metodlar yoki usullar uning qiziqishlaridan kelib chiqishi lozim.

0–3 yoshda til passiv o'rganiladi: bolalar so'zlarni eshitadi, bir-biridan ajratadi, ularni tushuna boshlaydi. 3–6 yosh oralig'ida esa tilni faol o'zlashtirishga o'tadi. Bu davrda bolalar murakkabroq gaplarni tuzishni boshlaydi, tilni o'qish va yozish asoslari ham o'rgatilishi mumkin.

### **Asosiy qism**

Xorijiy tillarni o'rganish nafaqat bolalarda, balki kattalarda ham muammolarni yuzaga keltiradi. Bolalarda duch kelinadigan muammolar quyidagilardir:

Tug'ma qobiliyatlarning pastligi, atrof-muhitning yetarli emasligi, kognitiv rivojlanishdagi cheklovlar, tilning murakkabligi, emotsional va psixologik to'siqlar, maxsus ehtiyojlar, madaniy farqlar, o'qituvchining o'rni.

Ushbu muammolarni yengish uchun ijtimoiy muhitni to'g'ri shakllantirish, turli metod va interfaol usullardan foydalanish, mantiqiy o'yinlar va xotira mashqlarini qo'llash, psixologik qo'llab-quvvatlash, shuningdek, madaniyat bilan bog'liq elementlarni o'rgatish zarur. Shuningdek, ota-onalarning va o'qituvchilarning to'g'ri yondashuvi til o'rganish natijasini belgilab beradi.

Innovatsion texnologiyalar, mobil ilovalar, smart ta'lim vositalari ham samaradorlikni oshiradi. O'qituvchilar bir nechta metodlardan foydalanib, ta'limni olib borishi lozim. Samarali metodlar qatoriga kommunikativ metod, grammatik-tarjima metodi, audio-tilshunoslik metodi, tajribaviy o'qitish, loyiha asosidagi o'qitish va aralash ta'lim usullari kiradi.

### **Xulosa**

Barcha nuqtai nazardan shuni xulosa qilish mumkinki, insonlar qanchalik erta til o'rganishni boshlasalar, bu bilimlar ulardan hech qachon yo'qolmaydi. Bolalar tildagi qoidalarni ko'r-ko'rona va tez o'zlashtiradi, chunki ularning xotirasi kuchli bo'ladi va erkin ifoda qilish qobiliyati rivojlangan bo'ladi. Ayniqsa, amaliy topshiriqlar va o'yinlar orqali o'rgatilgan bilim uzoq vaqt xotirada saqlanadi. Yosh bolalarda tashqi to'siqlar bo'lmasa, ularda ichki va tashqi motivatsiya kuchli bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Liang Xu, The Age Effect in Second Language Acquisition and its Study Design Method, 2023.

T. Scovel, A critical review of the critical period research. Annual Review of Applied Linguistics, 20 (2000).

J. S. Ma, Some Problems in the Hypothesis of the Critical Period of Language Acquisition and Foreign Language Teaching. Henan Social Sciences.

Harley, B. (1986). Age in Second Language Acquisition. Clevedon: Multilingual Matters.

Moon, J. & M. Nikolov. (2000). Research into Teaching English to Young Learners. Pecs: University Press Pecs.

Snow, C. & H. Marian. (1978). The critical age for SLA: evidence from second language learning. Child Development.

Snow, C. (2002). Second language learners and understanding the brain. In A. M. Galaburda, S. M. Kosslyn, & Y. Christen (eds.), The Language of the Brain. Cambridge, MA: Harvard University Press.

Lenneberg, E. H. (1967). Biological Foundations of Language. New York: Wiley.

Johnson, J. & E. Newport. (1989). Critical effects in second language learning: the influence of maturational state on the acquisition of ESL. Cognitive Psychology.

Morford, J. & R. Mayberry. (2000). A reexamination of "early exposure" and its implications for language acquisition by eye. In C. Chamberlain, J. Morford & R. Mayberry (eds.), Language Acquisition by Eye. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum.



INNOVATIVE  
ACADEMY